MINTAQALARNING BARQAROR IQTISODIY O'SISHIDA YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASINING AHAMIYATI: NAZARIY YONDASHUVLAR TAHLILI	815
Maxmudov Sobir Xudoyberdiyevich	
TURISTIK XIZMAT BOZORINING MOHIYATI, UNING VAZIFALARI VA MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	821
Payazov Murod Maqsudovich, Salimova Mumtozbeqim Jahongir qizi, Shahnoza Xudoyberdiyeva Davlatovna	
CHIGITLI PAXTA TARKIBIDAN YOT ARALASHMALARNI AJRATISH UCHUN QO'LLANILADIGAN TEXNOLOGIYALAR.....	825
Bozorov Dilmurod Bahromjon o'g'li, Jakparov Oltinboy Rustamjon o'g'li	
FEMALE ENTREPRENEURSHIP AND GREEN INITIATIVES: A CONCEPTUAL FRAMEWORK FOR SUSTAINABLE DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN	830
Abduxafizova Madinabonu Mirabbos qizi	
SOLIQ INSTRUMENTLARI ORQALI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	834
Akbarov Abdulhamid Akmal o'g'li, Ahrorqulov Jonibek Otabek o'g'li	
O'ZBEKISTONDA SANOAT ISHLAB CHIQRISHI KONSENTRATSIYASINING HUDUDIY TAHLILI: VILOYATLAR VA MAXSUS IQTISODIY ZONALAR BO'YICHA HERFINDAHL-HIRSCHMAN INDEKSI	839
Anvarxonov Abdulatifxon Jamshidxon o'g'li	



CHARM-POYABZAL SANOATI TARMOG'INING RIVOJLANISHI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI TO'G'RISIDA.....	847
Azimova Feruza Payziyevna, O. Maxmudov	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOG'INING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA RESURS EHTIYOJLARI.....	852
Arziqulova Oybarchin Eshquvat qizi	
KADRLAR SALOHİYATINI OSHIRISHGA YO'NALTIRILGAN TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	858
Xo'jaqulov Bobur Rustam o'g'li	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA KREDITLASH TIZIMINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	864
Tajimuratova Nelufar Vays qizi	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BAHOLASHNING EKONOMETRIK MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	871
Normamatova Sitara Nozim qizi, Raxmanov Mexridin Sindarovich	
BAHOLANGAN RISKLARGA NISBATAN AUDITORNING HATTI-HARAKATLARI	876
A.Z.Avlokulov	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA DAVLAT SUBSIDİYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA MOLIYAVIY HISOBOTDA OCHIB BERISHNI TAKOMILLASHTIRISH	880
Qadamov Mirzobek Ulug'bek o'g'li	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	885
Мухторов М. Н., Каримова А. М.	
FIZIK XAVFSIZLIK NAZORATI VA UNI ISPY DASTURI ASOSIDA MONITORING QILISH.....	892
Usmanbayev Doniyorbek Shuxratovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH JARAYONIDA STRATEGIK MENEJMENTNING AHAMIYATI	902
Bazarbaeva Dildora Ekramjon qizi, Koshanov Abdimurat Azat uli	
KALSIYLANGAN SODA ISHLAB CHIQRISHDA TEXNOLOGIK PARAMETRLARNI METROLOGIK TA'MINLASHNING AHAMIYATI	910
Ametova Biybisuliu Xamidullaevna, Ametov Quanishbay Xamidullaevich	
ЛЬГОТЫ ПО ПРЯМЫМ И КОСВЕННЫМ НАЛОГАМ И ИХ ГАРМОНИЧНОЕ СООТНОШЕНИЕ	915
Фаттоев Олимжон Гайрат ўғли	
O'ZBEKISTONDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI QO'LLAB-QUVVATLASHNING KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDAGI INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	920
Ulashova Zarnigor Botirali qizi	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	925
Abduraxmonov Valijon G'ofurovich, Yusupova Dilnigor A'zamjon qizi	
IQTISODIY TIZIMDA RISK VA UNING XUSUSIYATLARI TAHLILI.....	929
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	937
Zayniddinov Aloviddin Zayniddin o'g'li	
SOLIQ NAZORATINING AMALIYOTDAGI SAMARADORLIK JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	945
Nizomxonov Elbekxon Erkinxon o'g'li	
FISKAL MEKANIZMLARNING HUDUDIY RIVOJLANISHGA TA'SIR ETISH XUSUSIYATLARI.....	950
Ne'matov Ne'matulla Erkinboevich	



FISKAL MEXANIZMLARNING HUDUDIY RIVOJLANISHGA TA'SIR ETISH XUSUSIYATLARI

Ne'matov Ne'matulla Erkinboyevich

Texnologiya, menejment va kommunikatsiya instituti

Iqtisodiyot, moliya va buxgalteriya hisobi kafedrasida katta o'qituvchisi

+998934497800

Annotatsiya. Ushbu maqolada fiskal mexanizmlarning hududiy rivojlanishga ta'sir etish xususiyatlari ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq etilgan. Unda mahalliy budjetlar, budjetlararo transfertlar, soliq imtiyozlari, davlat investitsiyalari va maxsus iqtisodiy zonalarining hududlar iqtisodiy salohiyatini oshirishdagi o'rni yoritilgan. Tadqiqot natijalari fiskal siyosat hududlararo tafovutlarni kamaytirish, infratuzilmani rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish va mahalliy o'sish nuqtalarini shakllantirishda muhim vosita ekanini ko'rsatadi. Maqolada fiskal mexanizmlarni hududlarning iqtisodiy profili va moliyaviy salohiyatiga moslashtirish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: fiskal mexanizm, hududiy rivojlanish, mahalliy budjet, soliq imtiyozlari, budjetlararo transfert, davlat investitsiyalari, maxsus iqtisodiy zona, infratuzilma, hududlararo tafovut, iqtisodiy o'sish, soliq siyosati, mahalliy moliya.

Abstract. This article examines the specific features of the impact of fiscal mechanisms on regional development from both theoretical and practical perspectives. It analyzes the role of local budgets, interbudgetary transfers, tax incentives, public investment, and special economic zones in strengthening the economic potential of regions. The findings show that fiscal policy is an important tool for reducing interregional disparities, developing infrastructure, attracting investment, and creating local growth points. The article substantiates the need to adapt fiscal mechanisms to the economic profile, fiscal capacity, and socio-economic development priorities of each region.

Keywords: fiscal mechanism, regional development, local budget, tax incentives, interbudgetary transfers, public investment, special economic zone, infrastructure, interregional disparities, economic growth, tax policy, local finance.

Аннотация. В статье исследуются особенности влияния фискальных механизмов на региональное развитие с научной и практической точек зрения. Рассмотрены роль местных бюджетов, межбюджетных трансфертов, налоговых льгот, государственных инвестиций и специальных экономических зон в повышении экономического потенциала территорий. Результаты исследования показывают, что фискальная политика является важным инструментом сокращения межрегиональных различий, развития инфраструктуры, привлечения инвестиций и формирования локальных точек роста. В статье обоснована необходимость адаптации фискальных механизмов к экономическому профилю, финансовому потенциалу и приоритетам социально-экономического развития регионов.

Ключевые слова: фискальный механизм, региональное развитие, местный бюджет, налоговые льготы, межбюджетные трансферты, государственные инвестиции, специальная экономическая зона, инфраструктура, межрегиональные различия, экономический рост, налоговая политика, местные финансы.

KIRISH

Hududiy rivojlanish mamlakat iqtisodiy barqarorligining muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning sifati ishlab chiqarish kuchlarining joylashuvi, aholi bandligi, infratuzilma, mahalliy budjet salohiyati va investitsion muhit bilan bevosita bog'liq. O'zbekiston sharoitida fiskal mexanizmlar hududlar rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy davlat boshqaruvi vositalaridan biri hisoblanadi. Chunki soliq tushumlari, mahalliy budjet xarajatlari, subvensiya va dotatsiyalar, investitsiya dasturlari, davlat-xususiy sheriklik loyihalari hamda imtiyozli soliq rejimlari orqali hududlarning iqtisodiy faolligi rag'batlantiriladi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlar, sanoatlashuv darajasi, aholi jon boshiga daromadlar va infratuzilma bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichlari bir xil emas. Shu sababli fiskal siyosat faqat markazlashgan daromadlarni qayta taqsimlash emas, balki har bir hududning ichki salohiyatini ochib beruvchi mexanizm sifatida qaralishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlatning ijtimoiy yo'nalganligi alohida mustahkamlangan bo'lib, unda "O'zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat" [1] ekani belgilangan. Bu norma hududiy rivojlanish siyosatining ijtimoiy adolat, teng imkoniyat va resurslardan oqilona foydalanishga tayanishini anglatadi. O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksida esa budjet tizimi "O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti, davlat maqsadli jamg'armalari



budjetlari va budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalaridan" [2] iborat ekani belgilangan bo'lib, bu fiskal resurslarning ko'p pog'onali boshqaruv tizimi orqali hududlarga yo'naltirilishini ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarda hududiy rivojlanish jarayonlari fiskal, institutsional, infratuzilmaviy va investitsion omillar bilan izohlanadi. Kayukov, Lajensev va Shixverdiyev hududiy iqtisodiy siyosatni institutlar orqali tushuntirib, "milliy iqtisodiyot hududiy iqtisodiyotlar yig'indisiga oddiy tarzda tenglashtirilishi mumkin emas" deb ta'kidlaydi. Bu fikr hududiy rivojlanishni faqat umumiy makroiqtisodiy o'sish bilan izohlab bo'lmashligini, har bir hududning resurs, boshqaruv va budjet imkoniyatlari alohida tahlil qilinishi zarurligini ko'rsatadi [4]. Mazkur maqolada fiskal va kredit-pul sohasi hududlarning o'z imkoniyatlari asosida ijobiy natija berishi mumkin bo'lgan muhim yo'nalishlardan biri sifatida qayd etilgan.

Ahmadov va Novosyolova hududiy barqaror rivojlanish uchun institutsional o'zgarishlar hududiy xususiyatlarni hisobga olishi lozimligini ta'kidlab, "federal qonunlar, 'o'yin qoidalari', kodekslar va institutsional o'zgarishlarning boshqa elementlari hududiy xususiyatlarni hisobga olishi kerak" degan xulosani ilgari suradi. Ushbu yondashuv fiskal mexanizmlar hududlar ehtiyojiga moslashgan bo'lishi, ya'ni yagona soliq-budjet qoidalari bilan birga differensial yondashuv ham qo'llanishi kerakligini anglatadi [5]. Mualliflar hududiy iqtisodiy makon ishlab chiqarish, infratuzilma, resurslar va ijtimoiy omillar birligidan tashkil topishini ko'rsatadi.

Kireyeva va Pozdnyayev fiskal rag'batlantirishni hududiy rivojlanishning zamonaviy vositasi sifatida baholab, "alohida hududlarni rivojlantirishni fiskal rag'batlantirishning zamonaviy konsepsiyalari uyg'un iqtisodiy o'sishni ta'minlash, hududlararo tafovutlarni kamaytirish va milliy xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan" degan xulosaga keladi [6]. Ularning fikricha, maxsus soliq va bojxona sharoitlari strategik hududlarda klasterlar, anklavlar va o'sish nuqtalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu qarash O'zbekiston tajribasidagi erkin iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonalar va hududiy investitsiya dasturlari bilan bevosita bog'liqdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, institutsional yondashuv va statistik umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Fiskal mexanizmlar mahalliy budjetlar, soliq tushumlari, budjetlararo transfertlar, investitsiya xarajatlari va soliq imtiyozlari kesimida o'rganildi.

Hududiy rivojlanish esa yalpi hududiy mahsulot, o'sish sur'ati, aholi soni, investitsion faollik va infratuzilma ta'minoti kabi ko'rsatkichlar orqali baholandi. Tadqiqotda O'zbekiston hududlari bo'yicha mavjud statistik ma'lumotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda xorijiy ilmiy maqolalardagi nazariy yondashuvlar asos qilib olindi.

Natijalarni izohlashda fiskal siyosatning rag'batlantiruvchi, muvozanatlashtiruvchi va institutsional ta'sir mexanizmlari alohida ajratib ko'rsatildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, fiskal mexanizmlar hududiy rivojlanishga uch asosiy yo'l orqali ta'sir ko'rsatadi: birinchidan, mahalliy budjetlar orqali ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini moliyalashtiradi; ikkinchidan, soliq imtiyozlari va preferensiyalar orqali investitsiya oqimini hududlarga yo'naltiradi; uchinchidan, budjetlararo transfertlar orqali iqtisodiy salohiyati nisbatan past hududlarni qo'llab-quvvatlaydi.

Amaliy jihatdan Toshkent shahri, Toshkent viloyati va Navoiy viloyati kabi iqtisodiy markazlarda YHM hajmining yuqoriligi mahalliy soliq bazasining kengligi, sanoat va xizmatlar sektori rivojlanganligi bilan bog'liq. Demografik bosimi yuqori, biroq sanoatlashuv darajasi nisbatan past hududlarda esa fiskal mexanizmlar ko'proq ijtimoiy infratuzilma, bandlik va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilishi zarur.

2025-yil bo'yicha hududiy ko'rsatkichlar Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Navoiy va Samarqand viloyatlarida iqtisodiy faollik yuqori ekanini ko'rsatadi. Masalan, Toshkent shahri xizmatlar va boshqaruv markazi sifatida eng katta YHM ulushiga ega bo'lsa, Navoiy viloyatida resursga tayanuvchi sanoat, Toshkent viloyatida sanoat-aglomeratsion ishlab chiqarish, Samarqand viloyatida esa demografik va xizmatlar salohiyati ustunlik qiladi. Demak, fiskal siyosat hududlar uchun bir xil emas, balki differensial, ya'ni hududning iqtisodiy profili va fiskal bazasiga mos bo'lishi kerak (1-jadval).

1-jadval
Fiskal mexanizmlarning hududiy rivojlanishga amaliy ta'siri¹

Fiskal mexanizm	Hududiy ta'sir yo'nalishi	Amaliy natija
Mahalliy budjet xarajatlari	Ijtimoiy va kommunal infratuzilmani moliyalashtirish	Maktab, yo'l, ichimlik suvi, tibbiyot va kommunal xizmatlar sifati oshadi
Soliq imtiyozlari	Investitsiyalarni hududlarga jalb qilish	Yangi korxonalar, ish o'rinlari va sanoat klasterlari shakllanadi
Budjetlararo transfertlar	Fiskal salohiyati past hududlarni qo'llab-quvvatlash	Hududlararo ijtimoiy-iqtisodiy tafovut kamayadi
Davlat investitsiya dasturlari	Strategik infratuzilma va ishlab chiqarish loyihalarini moliyalashtirish	Transport, energetika va ishlab chiqarish quvvatlari kengayadi
Maxsus iqtisodiy zonalar	Soliq-bojxona preferensiyalari orqali o'sish nuqtalarini yaratish	Eksport, sanoat kooperatsiyasi va xorijiy investitsiyalar ortadi

Mazkur jadval fiskal mexanizmlarning hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini amaliy jihatdan ochib beradi hamda hududiy fiskal siyosatning iqtisodiy natijalarga qanday ta'sir ko'rsatishini ifodalaydi. Jadvaldagi har bir fiskal instrument ma'lum bir hududiy rivojlanish yo'nalishiga xizmat qilishi bilan birga, yakunda ijtimoiy-iqtisodiy o'sishning muhim omiliga aylanadi. Ushbu jihat jadvalning ilmiy va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Birinchi yo'nalish — mahalliy budjet xarajatlari orqali ijtimoiy va kommunal infratuzilmani moliyalashtirish hisoblanadi. Bu mexanizm hududiy rivojlanishning asosiy tayanch omillaridan biri bo'lib, mahalliy budjet mablag'larining samarali taqsimlanishi aholi turmush sifati va hududning investitsion jozibadorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xususan, maktablar, ichimlik suvi, yo'l va sog'liqni saqlash tizimining rivojlanishi inson kapitalining o'sishiga xizmat qiladi. Natijada hududda iqtisodiy faollik va mehnat unumdorligi oshadi. Mazkur yondashuv zamonaviy hududiy rivojlanish nazariyalarida "infratuzilmaviy multiplikativ effekt" sifatida baholanadi.

Ikkinchi yo'nalish — soliq imtiyozlari orqali investitsiyalarni hududlarga jalb qilish mexanizmi hisoblanadi. Jadvalda ko'rsatilganidek, soliq preferensiyalari yangi korxonalar va ish o'rinlari yaratishga xizmat qiladi. Bu, ayniqsa, iqtisodiy jihatdan sust rivojlangan hududlarda sanoat klasterlarini shakllantirishda muhim instrument hisoblanadi. Soliq yukining kamayishi investorlar uchun qulay biznes muhitini yaratadi. Shu bilan birga, ilmiy jihatdan soliq imtiyozlari uzoq muddatli samaradorlik tamoyili asosida qo'llanilishi lozim. Aks holda, ular budjet daromadlarining qisqarishiga olib kelishi mumkin.

Uchinchi yo'nalish — budjetlararo transfertlar orqali fiskal salohiyati nisbatan past hududlarni qo'llab-quvvatlashdir. Ushbu mexanizm fiskal tenglashtirish siyosatining asosiy elementi hisoblanadi. Transfertlar orqali markaziy budjet mablag'lari hududlar o'rtasida qayta taqsimlanadi va minimal ijtimoiy standartlarni ta'minlashga xizmat qiladi. Natijada hududlararo tafovutlar qisqaradi hamda iqtisodiy barqarorlik mustahkamlanadi. Biroq ilmiy adabiyotlarda transfertlarga haddan tashqari qaramlik hududlarning fiskal mustaqilligini pasaytirishi mumkinligi ham qayd etiladi.

To'rtinchi yo'nalish — davlat investitsiya dasturlarining hududiy rivojlanishga ta'siridir. Strategik infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish orqali transport, energetika va ishlab chiqarish quvvatlari kengayadi. Ayniqsa, transport-logistika infratuzilmasining rivojlanishi hududlararo iqtisodiy integratsiyani kuchaytiradi va ichki bozorning samarali ishlashiga xizmat qiladi. Davlat investitsiyalarining uzoq muddatli iqtisodiy o'sishdagi roli keynscha iqtisodiy yondashuvlarda ham muhim o'rin egallaydi.

Jadvaldagi so'nggi yo'nalish — maxsus iqtisodiy zonalar orqali o'sish nuqtalarini shakllantirishdir. Soliq va bojxona preferensiyalari yordamida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, eksport hajmini oshirish hamda sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish mumkin bo'ladi. Mazkur mexanizm hududiy iqtisodiyotda "growth pole" konsepsiyasiga mos keladi. Ya'ni ayrim hududlarda iqtisodiy faollik markazlari yaratiladi va ular boshqa hududlarga ham rivojlanish impulsini uzatadi.

Umuman olganda, jadval fiskal mexanizmlar va hududiy iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni tizimli ravishda ifodalaydi. Unda fiskal instrumentlarning nafaqat budjet daromadlari va xarajatlariga, balki investitsiya muhiti, infratuzilma, bandlik va hududiy tenglikka ham ta'sir qilishi ochib berilgan. Shu jihatdan mazkur jadval maqolaning nazariy-metodologik qismini boyituvchi muhim analitik material sifatida xizmat qiladi.

Fiskal mexanizmlarning hududiy rivojlanishga ta'siri bevosita va bilvosita shakllarda namoyon bo'ladi. Bevosita ta'sir mahalliy budjet xarajatlari, davlat investitsiyalari va transfertlar orqali kuzatilsa, bilvosita ta'sir soliq imtiyozlari, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, xususiy kapitalni jalb qilish va hududiy raqobatbardoshlikni oshirish orqali yuzaga chiqadi. Shu nuqtai nazardan, fiskal siyosatning samaradorligi faqat ajratilgan mablag' hajmi bilan emas, balki uning hududiy ehtiyojlarga qanchalik mosligi, natijadorlik indikatorlari bilan bog'langanligi

1 Muallif tomonidan tayyorlandi.



va mahalliy boshqaruv institutlari salohiyati bilan belgilanadi.

Adabiyotlar sharhi ham fiskal mexanizmlarning institutsional muhitdan ajratilgan holda samarali ishlamasligini ko'rsatadi. Xususan, hududiy iqtisodiy siyosatda fiskal vositalar mulk munosabatlari, infratuzilma, ekologik talablar, mahalliy boshqaruv va biznes manfaatlari bilan uyg'unlashgandagina barqaror natija beradi (2-jadval).

2-jadval

Hududiy rivojlanishda fiskal mexanizmlarning afzalliklari va cheklovlari²

Yo'nalish	Afzalliklari	Cheklovlari
Mahalliy budjet mustaqilligi	Hudud ehtiyojiga mos xarajatlarni belgilash imkonini beradi	Soliq bazasi zaif hududlarda moliyaviy qaramlik saqlanadi
Soliq imtiyozlari	Investorlar uchun rag'bat yaratadi	Imtiyozlar natijadorligi baholanmasa, budjet yo'qotishlari ortadi
Transfertlar	Hududlararo tenglashtirish vazifasini bajaradi	Doimiy transfertga qaramlik mahalliy tashabbusni pasaytirishi mumkin
Davlat investitsiyalari	Yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshiradi	Mablag'lar samarasiz tanlangan loyihalarga yo'naltirilishi mumkin
Maxsus iqtisodiy zonalar	Eksport va sanoat kooperatsiyasini kuchaytiradi	Barcha hududlarda bir xil natija bermaydi, resurs va logistika omiliga bog'liq

Mazkur jadval fiskal mexanizmlarning hududiy rivojlanishdagi ijobiy va cheklovli jihatlarni kompleks tarzda yoritadi. Unda har bir fiskal instrumentning iqtisodiy rag'batlantiruvchi xususiyati bilan birga, amaliy qo'llashdagi o'ziga xos jihatlari ham ko'rsatilgan.

Mahalliy budjet mustaqilligi hududlarga o'z ehtiyojlaridan kelib chiqib xarajatlarni shakllantirish imkonini beradi va boshqaruv samaradorligini oshiradi. Biroq soliq bazasi nisbatan cheklangan hududlarda markaziy budjetga moliyaviy bog'liqlik saqlanib qolishi mumkin.

Soliq imtiyozlari investitsiyalarni jalb qilish va tadbirkorlikni rag'batlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, ularning samaradorligi muntazam baholab borilmasa, budjet daromadlari hajmiga ta'sir ko'rsatishi ehtimoli mavjud.

Budjetlararo transfertlar hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni yumshatishga xizmat qiladi. Ammo uzoq muddatli transfertlarga yuqori darajada tayanish mahalliy tashabbus va fiskal mustaqillikni pasaytirishi mumkin.

Davlat investitsiyalari yirik infratuzilma va strategik loyihalarni amalga oshirish imkonini beradi. Biroq mablag'larning iqtisodiy samaradorligi past loyihalarga yo'naltirilishi resurslardan yetarli darajada samarali foydalanilmasligiga olib kelishi mumkin.

Maxsus iqtisodiy zonalar eksport, sanoat kooperatsiyasi va xorijiy investitsiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Biroq ularning natijadorligi hududning logistika, resurs va infratuzilma salohiyatiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Umuman olganda, jadval fiskal mexanizmlarni qo'llashda muvozanatli yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Ya'ni har bir instrumentning iqtisodiy samarasi hududning fiskal salohiyati, institutsional muhiti va boshqaruv sifati bilan chambarchas bog'liq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Fiskal mexanizmlar hududiy rivojlanishning muhim boshqaruv vositasi bo'lib, ular orqali davlat hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytiradi, mahalliy infratuzilmani rivojlantiradi, investitsion faollikni rag'batlantiradi va yangi o'sish nuqtalarini shakllantiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, fiskal siyosat bir xil yondashuv asosida emas, balki hududlarning iqtisodiy profili, demografik bosimi, sanoatlashuv darajasi va mahalliy budjet salohiyatiga mos ravishda ishlab chiqilishi zarur.

Samarali fiskal mexanizm budjet xarajatlari, soliq imtiyozlari, transfertlar va investitsiya dasturlarini natijadorlik ko'rsatkichlari bilan bog'lagan holda amalga oshirilganda hududiy rivojlanishga kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bois O'zbekistonda fiskal boshqaruvni hududiy differensiallashtirish, mahalliy daromad bazasini kengaytirish va budjet mablag'larining samaradorligini baholash tizimini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, amaldagi tahrir.
2. O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, amaldagi tahrir.
3. Kayukov V. V., Lajensev V. N., Shixverdiyev A. P. Ekonomicheskaya politika i instituti razvitiya regionov // Ekonomika regiona. – 2019. – T. 15, № 4. – B. 996–1008. – DOI: 10.17059/2019-4-3.
4. Ahmadov M.-E. I., Novosyolova N. N. Issledovaniye formirovaniya usloviy i mexanizmov ustoychivogo razvitiya ekonomiki regionov // Ekonomicheskij vestnik Rostovskogo gosudarstvennogo universiteta. – 2008. – T. 6, № 1, qism 2. – B. 19–24.
5. Kireyeva E. F., Pozdnyayev A. S. Fiskalnoye stimulirovaniye regionov v kontekste ekonomicheskix i geopoliticheskix gosudarstvennix strategiy: teoreticheskij podxod // Vestnik Altayskoy akademii ekonomiki i prava. – 2025. – № 5. – B. 140–146.
6. Kovarda V. V., Timofeyeva O. G. Osobennosti instrumentov stimulirovaniya regionalnogo razvitiya v Rossii // Vestnik Altayskoy akademii ekonomiki i prava. – 2018. – № 8. – B. 135–143.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100